



## SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 20-fevral

29-7-102-F/25

Paxtachi tumani hokimligi

### **Tumanda epizootiyaga qarshi profilaktika tadbirlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 14-yanvardagi Respublika hududida epizootiyaga qarshi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va ularni monitoring tizimini yaxshilash bo‘yicha 02/16-24-sonli ko‘rsatmasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, tuman hududida odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan epizootiyaga qarshi kurashish profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limining 2025-yil 14-fevraldagi 40/3-15-sonli xatiga asosan tumanda epizootiyaga qarshi profilaktika tadbirlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida:

1. Tumanda epizootiyaga qarshi profilaktika tadbirlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida hududlarda bahorgi profilaktik tadbirlar bo‘yicha 2025-yil 15-yanvardan boshlab “Dolzarb 90 kunlik” tadbir e‘lon qilinsin.

2. Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (D.Rahimov) tumanda profilaktik tadbirlarni tashkil etish va samarali o‘tkazish va hududlarning epizootik barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (D.Rahimov)ga:

o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlarni muvofiqlashtirib borish bo‘yicha emlash guruhlarini shakllantirish;

profilaktik tadbirlarni mahallabay va xonadonbay usulda amalga oshirilishini;

profilaktik tadbirlar epizootik vaziyatdan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda chorvachilik fermer va naslchilik xo'jaliklarida, kasallikning eski o'choqlari va chegara hududlarda hamda shaxsiy dehqon xo'jaliklarida o'tkazish;

hududlarda o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarni muvofiqlashtirish, tahlil etish va umumlashtirib borish uchun ma'lumotlarni doimiy ravishda viloyat shtabiga o'z vaqtida taqdim etib borish;

tegishli tashkilotlar bilan birgalikda bilim va tajribaga ega bo'lgan soha mutaxassislarini jalb etgan holda aholi va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar rahbar va xodimlari ishtirokida hayvonlarni parvarishlash, yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazishning ahamiyati bo'yicha keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlari, seminar va uchrashuvlar o'tkazib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman SEO va JS bo'limi (M.Rasulov)ga tuman aholisi o'rtasida yuqumli kasalliklar kelib chiqishi asoratlari to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (B.Azizov) epizootiyaga qarshi profilaktika tadbirlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida hududlarda bahorgi profilaktik tadbirlar bo'yicha "Dolzarb 90 kunlik" tadbiri davomida joylardagi mahalla fuqarolar yig'ini faollarini safarbar qilib, aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borsin.

6. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (A.Nosirov) "Dolzarb 90 kunlik" tadbiri davomida maktab o'quvchilari o'rtasida epizootik kasalliklarni oldini olish, o'tishi va oqibatlarini to'g'risida qo'shimcha tushuntirishlar o'tkazilishini ta'minlasin.

7. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Boyqobilov)ga hayvonlarda yuqumli epizootik kasalliklarni oldini olish va emlash "Dolzarb 90 kunlik" tadbiri bilan bog'liq xarajatlar uchun tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining xarajatlar smetasiga qo'shimcha ravishda mablag' ajratishni amalga oshirish topshirilsin.

8. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (U.Xalimov)ga “Dolzarb 90 kunlik” tadbiri davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyuldagi “Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog‘liq xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 202-sonli qaroriga muvofiq it saqlash qoidalarini buzgan fuqarolarga qonun doirasida chora ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Shermatov) it ovlovchi xodimlarining ishini jonlantirish hamda tuman hududidagi mavjud qabriston, ko‘cha, ovullar va MFY lar hududlarida daydi itlarni tutish va belgilangan tartibda yo‘qotish choralari ko‘rsin.

10. “Paxtachi” gazetasi (S.Qurbonov) tuman hokimligi axborot xizmati (A.Husanov) yuqumli epizootik kasalliklarni kelib chiqishi, oqibatini oldini olish va “Dolzarb 90 kunlik” davomida amalga oshirilayotgan emlash va oldini olish tadbirlarni muntazam ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (G‘.Absanov) zinmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**M.Xamdamov**